


“TASDIQLAYMAN”
Xorazm viloyati hokimi,
tashkiliy ishchi guruh
rahbari o‘rinbosari



J.Raximov

2025-yil 23-iyun

Xorazm viloyati hokimligida o‘tkazilgan 455 -sonli majlis
BAYONI

2025-yil 23-iyun

viloyat hokimligi
majlislar zali

Raislik qiluvchi

- **J.Raximov** – Xorazm viloyati hokimi, *tashkiliy ishchi guruh rahbari o‘rinbosari*

Ishtirok etganlar:

- Ishchi guruh a‘zolari, viloyat hokimining o‘rinbosarlari, viloyat hokimligi guruh rahbarlari, kotibiyat mudirlari, tegishli boshqarmalar, idoralar va tashkilotlar rahbarlari, shaharlar va tumanlar hokimlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi
“2024-2026-yillarda Xorazm viloyatini turizm salohiyatini yanada rivojlantirish
chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-394-son qaroriga asosan Xiva shahrida
“Gilamlar jilosi” nomi ostida xalqaro gilam ko‘rgazmasini (festival) yuqori
saviyada o‘tkazishni ta‘minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar
to‘g‘risida

(*Raximov, Mirzaaxmedov, Achilov, Saidov, Polvonov, Davletov, Bobojonov, Eshchanov, Raximov*)

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning milliy hunarmandchilik rivojiga qaratayotgan yuksak e‘tibor va rag‘bati tufayli Xorazm viloyati hunarmandchiligi jadal rivojlanib, jahon hamjamiyatining alohida hurmati va e‘tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Milliy hunarmandchilikning unutilib borayotgan ko‘plab turlarini qayta tiklash, xalqimizning usta-hunarmandlari tomonidan yaratilgan tarixiy an‘analarini rivojlantirish, hunarmandchilikning asrlar davomida shakllanib kelgan mahsulotlarini yaratishni san‘at darajasiga ko‘tarish hamda ularni jahon bozoriga olib chiqish borasidagi harakatlar o‘z natijasini bermoqda.

O'zbek xalqi amaliy san'atining asl tarixiy an'analarini o'zida mujassam etgan, avloddan avlodga meros sifatida o'tib kelayotgan yog'och o'ymakorligi, ipakchilik, bosh kiyimlar tayyorlash, milliy libos tayyorlash, do'ppichilik, ipakdan gilam to'qish sohalarini rivojlantirish hamda nafis san'at asari hisoblanadigan gilamdo'zlikni bozor talablariga uyg'unlashtirish, uni ommalashtirish va jahon bozorlarida xaridorligini yanada oshirish bosh maqsad ekanligi ta'kidlab o'tildi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-iyundagi 142-sonli yig'ilish bayonining 5-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida ishchi guruh tomonidan kiritilgan kun tartibida bildirilgan fikr-mulohazalar hamda takliflarni inobatga olib, yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-iyundagi 142-sonli yig'ilish bayoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xorazm viloyati hokimligi, "Hunarmand" uyushmasi va Turizm qo'mitasining Xiva shahrida "Gilamlar jilosi" nomi ostida xalqaro gilamchilik ko'rgazmasi (festivali) logotipini ishlab chiqish, keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yib tanlov asosida tanlab olish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

3. Xiva shahrida "Gilamlar jilosi" nomi ostida xalqaro gilamchilik ko'rgazmasi (festivali) 2025-yil 18-19-oktabr kunlari yuqori saviyada o'tkazish va tashkil etilishi ma'lumot sifatida qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

"Gilamlar jilosi" nomi ostida xalqaro gilamchilik ko'rgazmasi festivali logotipi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ijodiy tanlov tashkil etish va o'tkazish nizomi **1-ilovaga muvofiq;**

"Gilamlar jilosi" nomi ostida xalqaro gilamchilik ko'rgazmasi (festivali) logotipi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ijodiy tanlov natijalarini ko'rib chiqish va g'oliblarni aniqlash hay'ati tarkibi **2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

6. Respublika "Hunarmand" uyushmasi (R.Mirzaaxmedov)ga Xorazm viloyati hokimligi (B.Saidov) bilan birgalikda "Gilamlar jilosi" nomi ostida xalqaro gilamchilik ko'rgazmasi festivali yangi logotipi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ijodiy tanlov boshlanishi va shartlari to'g'risida mahalliy ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon berish tavsiya etilsin.

7. Mazkur bayon ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Bayonnomani yuritdi



M.Bekchanov

Bayon (Sobirov) H (Kerimov)

*Xiva shahrida "Gilamlar jilosi" nomi ostida
xalqaro gilamchilik ko'rgazmasi o'tkazish
to'g'risidagi 2025-yil 23-iyundagi 455-son
yig'ilish bayoniga
1-ilova*

**"Gilamlar jilosi" nomi ostida xalqaro gilamchilik ko'rgazmasi festivali
logotipi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ijodiy tanlov tashkil etish va
o'tkazish
NIZOMI**

1. Umumiy qoidalar.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi "2024-2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-394-sonli qaroriga asosan Xiva shahrida "Gilamlar jilosi" nomi ostida xalqaro gilamchilik ko'rgazmasi festivali logotipini bo'yicha ijodiy tanlov Toshkent shahrida o'tkaziladi.

1.2. Ijodiy tanlov tashkilotchilari:

O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Turizm davlat qo'mitasi, Xorazm viloyati hokimligi.

1.3 Ijodiy tanlovning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi "2024-2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-394-sonli qaroriga asosan Xiva shahrida "Gilamlar jilosi" nomi ostida xalqaro gilamchilik ko'rgazmasi festivali logotipi loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha eng yaxshi loyihani tanlab olishdir.

1.4. Logotip loyihalarini qabul qilish Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasi.

2. Ijodiy tanlovga qo'yiladigan talablar.

2.1. Ijodiy tanlov bir bosqichda o'tkaziladi.

2.2. Ijodiy tanlov ishtirokchilari uchun tanlovga oid quyidagi ma'lumot va materiallar beriladi:

Tanlov nizomi;

2.3. Ijodiy tanlovda professional reklama kompaniyalari, agentliklar bilan bir qatorda jismoniy shaxslar (frilanserlar, hunarmandlar, rassomlar, talabalar va h.z) ishtirok etishlari mumkin.

2.4. Ijodiy tanlovda quyidagilar ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmaydi:

hakamlar hay'atini tuzgan shaxslar;

hay'at a'zolari,

tashkiliy qo'mita a'zolari, shuningdek, tanlovga tayyorlanish, o'tkazish, natijalarni qabul qilish va tasdiqlash bosqichlarining birortasida ishtirok etuvchi shaxslar.

2.5. Tanlovga loyihalar quyidagi tarkibda taqdim etiladi:

Logotip loyihalari taqdim qilinish soni chegaralanmagan.

Logotip loyihasi formati -10 Mb gacha, ikki ko'rinishda – "JPG yoki JPEG" va albatta "PSD" formatida elektron variantda 3.2 bandda ko'rsatilgan manzilda qabul qilinadi.

Agar pochta orqali yuborilsa, mualliflar haqidagi ma'lumotlar alohida konvertida bo'lishi shart.

2.6. Loyiha festivalning mohiyatini yoritib beruvchi ramziy xususiyatlarga, betakror badiiy yechimga, badiiy g'oyaning izchilligiga ega bo'lishi, festival mavzusiga mosligi, logotip xalq amaliy san'ati gilamchilikni ifodalashi hamda "Gilamlar jilosi" xalqaro festivali yoki Xiva "Gilamlar jilosi" xalqaro festivali yozuvlari bo'lishi kerak.

Logotipning qismlari yoki boshqa festivallarga tegishli logotiplar yoki dizaynning elementlari yoki qismlari bo'lmasligi zarur va tanlov o'tkazilguniga qadar biror joyda namoyish etilmagan bo'lishi shart.

3. Ijodiy tanlov o'tkazishning tashkiliy jihatlari.

3.1. Ijodiy tanlovning boshlanish sanasi Tashkiliy qo'mita qaroriga asosan aniqlanadi va tanlov boshlanishidan 1 kun oldin ommaviy axborot vositalarida tanlov shartlari e'lon qilinadi.

3.2 Ishlab chiqarilgan logotip loyihalari grafik fayl va ta'rif matnini 2025-yil 1-iyul soat 14⁰⁰ga qadar quyidagi manzilga yuboriladi: O'zbekiston Respublikasi, 100185. Toshkent shahri Do'mbirobod ko'chasi 74-uy. Telefon orqali ma'lumotlar: (+99871) 279-80-88, e-mail: info@handicraftman.uz.

3.3. Tanlovga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

4. Ijodiy tanlov natijalarini berish.

4.1. Ijodiy tanlovning natijalarini hakamlar hay'ati taqdim etadi. Hakamlar hay'ati tarkibida mas'ul idora vakillari tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi.

4.2. Hakamlar hay'ati Ijodiy tanlovning asosiy talablariga javob bermaydigan loyihalarni ko'rmaslikga haqli.

4.3. Umumiy a'zolarining 2/3dan kam bo'lmagan qismi qatnashayotgan bo'lsa, hakamlar hay'ati qonuniy sanaladi. Hay'at a'zolarining har biri bitta ovozga ega. Agar hay'at a'zolarining ovozi teng bo'lsa, komissiya raisi yakuniy ovozga ega.

4.4. Hakamlar hay'ati qarori rasmiylashtirilib, hay'atning har bir a'zosi tomonidan imzolanadi va hay'at raisi tomonidan tasdiqlanadi.

4.5. Hakamlar hay'atining tanlov ishtirokchilarini mukofotlash to'g'risidagi qaroridan so'ng tanlov natijalari e'lon qilinadi va mukofotlangan ishtirokchilarning yashirin imzoli konvertlari ochiladi.

4.6. Ijodiy tanlov natijalariga birinchi o'rin uchun 5 000 000 (besh million) so'm, ikkinchi o'rin uchun 3 000 000 (uch million) so'm, uchinchi o'rin uchun 2000 000 (ikki million) so'mni tashkil etadi.

4.7. Tanlov natijalari O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasi saytida e'lon qilinadi.

5. Ziddiyatlarni hal qilish shakllari va joyi.

5.1. Ijodiy tanlov tashkilotchilari va ishtirokchilari orasida paydo bo'lgan bahslar va ziddiyatlar hal etilishi uchun dastlab hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi. Hakamlar hay'ati hal eta olmagan bahsli masalalar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlari asosida ko'rib chiqiladi.

Xiva shahrida "Gilamlar jilosi" nomi ostida
xalqaro gilamchilik ko'rgazmasi o'tkazish
to'g'risidagi 2025-yil 23-iyundagi 455-son
yig'ilish bayoniga 2-ilova

**Xiva shahrida "Gilamlar jilosi" nomi ostida xalqaro gilamchilik ko'rgazmasi
festivali yangi logotipi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ijodiy tanlov
natijalarini ko'rib chiqish va g'oliblarni aniqlash
HAY'ATI TARKIBI**

T/r	F.I.O.	–	Lavozimi
1.	R.Mirzaaxmedov	–	Respublika "Hunarmand" uyushmasi raisi, <i>hay'at raisi</i>
2.	B.Saidov	–	Xorazm viloyati hokimining turizm, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha o'rinbosari, <i>hay'at raisi o'rinbosari</i>
3.	A.Xakimov	–	O'zbekiston Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti Tasviriy va amaliy-bezak san'ati bo'limi mudiri
4.	M.Abdullayev	–	San'atshunoslik instituti ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
5.	Binafsha Nodir	–	"San'at" va "Hunarmand" jurnallari bosh muharriri
6.	I.Bobojonov	–	"Hunarmand" uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i
7.	M.Madraimov	–	Gilamchi usta (Xiva shahri)